

O'ZBEK QADRIYATIDA NURONIYLARNI E'ZOZLASH, HAMDA ULARNING YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI TA'SIRI

Qutliyev Shahbos Abbosovich

*O'zbekiston milliy universiteti ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda nugungi kunda yurtimizda nuroniylarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, shuningdek qadriyatimizda kattaga hurmatda, aqidasining tahlilil qilinadi. Nuroniylarning boy hayotiy tajribalari bugungi yosh avlodni tarbiyalashda nechog'lik ahamiyatli ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, millatlararo, elat, baynaminallik, milliy markazlar, demokratiya prensplari, tarixiy ildizlar, umuminsoniy.

Kirish.

Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlar – “milliylik” “ma'naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahsida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'naliishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xattiharakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida har bir kishiga munosib xayotni barpo etishda chuqur bilim, tajriba, malakaga ega bo'lgan keksalarni qadriyat sifatida e'zozlash, ularning hurmatini, izzatini joy – joyiga qo'yish, yoshlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash ishida ularning faoliyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

Darhaqiqat, o'tmish tariximizga nazar tashlanadigan bo'lsa, hamma davrlarda keksalarga munosabat qadriyat sifatida e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz. Keksalar katta hayot tajribasiga ega bo'lganligi tufayli yoshlarni yuksak fazilat egasi, axloqli, tarbiyali, bilimli, hamda yuksak hunarli bo'lib kamolotga erishishida ularning ta'siri beqiyos bo'lgan. O'rta asrlarda yashab ijod etgan Alisher Navoiy o'zining “Mahbub ul - qulub” asarida ta'kidlaganidek; “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. ... Odob – kichik yoshlilarni kattalar duosiga

sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob – ulug'lar (fazilatli keksalar) ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l - atvori odobdir, odoblilarning yurish – turishida xalq ulug'vorlik ko'radi"¹ – deb ifodalaydi.

Darhaqiqat, keksalarni ulug'lash, ularning amalga oshirgan ishlaridan ibrat olib, faxrlanib yashash tuyg'usi ta'sirida yashab, yoshlar o'zlarining amaliy faoliyatida ulug'vor ishlarning amalga oshishida turtki bo'ladi.

Hozirgi davrda yosh kadrlar tayyorlashda keksalar, nafaqaxo'rlar, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish vazifalarini muttasil hukumatimiz qarorlarida belgilangan tartibda amalga oshirilib kelinmoqda. Natijada keksalarimiz qalbida kelajak hayotga ishonch paydo bo'lishiga va kundalik amaliy faoliyatida turli jamoat ishlarida, hamda yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash ishlarida faol ishtirok etib, mamlakatimiz qudratini oshirishda xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, yoshlar kelajak taraqqiyotimizning taqdirini belgilaydi, ular bilimli, tarbiyali, vatanparvar, mexnatsevar, insonparvar, fidoiy bo'lsa ota – bobolarimiz, hamda bilimdon keksalarimizdan ibrat olib mamlakat qudratini oshirib boraveradi.

Yaqinda "Jamiyat" gazetasida chop etilgan "Nuroniyalar ibrati bolalarimiz kelajagini belgilaydi" degan maqolada yoshlar tarbiyasiga samarali ta'sir etuvchi omillar xususida fikrlar ko'tarilgan, ya'ni, bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboevga bir necha savollar bilan murojat qilingan, bolalar, yoshlar bilimdoni sifatida bugun farzand tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerak, degan savolga javob berib, ulg'ayib odamlar qalbini, fe'l-atvori ni dunyoqarashini o'rganish asnosida, avvalo yaxshilik urug'ini ertaroq ekish, hususan, bolalar qalbiga qadash ulug'ish ekanligi ularning qalbini avaylab-asrash yorug' yo'llarga boshlash juda nozik masala ekanligini dunyoda eng murakkab ish bolani, yoshlarni tushunish ekanligini, chunki bola ruxiyatida go'zallik,adolat, haqiqat va ma'suliyat tuyg'usi jamul-jam bo'ladi. Shunday tuyg'ular bilan yoshlar tarbiyasi uchun ota-onadan tashqari mакtab, mahalla taylor turishi kerak. Shundagina bu ezgu tuyg'ular bola (yoshlar) qalbida etiladi. Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasida uch omilga e'tiborni qaratish zarurligiga: ya'ni, yoshlarda tug'ma qobilyatlarni imkon qadar ertaroq aniqlash, bolalar ongiga singdirish, farzandlarimizning tabiatini anglab ulg'ayishiga erishish. Toki, ulg'aygan, suyagi qotgan odamni qayta tarbiyalashga ehtiyoj qolmasin.

Muhokama.

Bugungi kunda televizor kompyutr, internet hayotimizga jadal kirib borayotganligi oqibatida millatni millat qilib turgan qadriyatlar ham tobora yiroqlashib borayotganga o'xshaydi, degan savollar yuzaga kelmoqda. Xorij mamlakatlariga

¹ A.Navoiy. Mahbub ul - qulub. –T.: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti". 1983yil, 48-bet.

borganda maktablarda ta’lim tizimini kuzatib, ba’zi bir qiziqarli usullarni qo’llagani, ya’ni misol uchun Latviya, Litva va Estoniya mamlakatlarida maktab o’quvchilari yiqqan jild-jild ertaklarni ko’rsatgan. U erda har bir o’quvchi bitirayotganda kamida 50 ta ertak yozib olib, qoldirib ketishi kerak ekan, bo’lmasa shahodatnoma ololmas ekan. Abxaziyaning Sxaltuba shahridagi bir maktab o’quvchilari ham 1936 yildan buyon ertak yig’isharkan. Maktabda uch yuz tomdan ortiqroq ertak jamlangan, har yili to’plangan ertaklarni 8-10 ta kitob qilib chiqarib turilarkan. Biz bu borada targ’ibotni kuchaytirishimiz kerak. Zero, keksalar ibrati bolalarimiz kelajagini belgilab beradi. Bolalarimizning shuurii faqat milliy ruhda o’ssin, kamol topsin. Ular uchun dunyodagi eng qiziqarli kitoblar milliy adabiyotimiz namunalari bo’lishi kerak. Adabiyotimizda bolalar yozuvchilarining safi kengaysa, bolalarni jalg qiladigan, sevib hijjalab o’qiydigan badiiy asarlar kengaysa, bolalarimiz qalbiga hech qanday yot kuchlar tahdid sola olmaydi. Keksalik gashtini surayotgan har bir inson, bir-biri bilan o’zaro tayanch-suyanch bo’lib, baxtning kaliti bo’lgan o’zaro mehr-oqibat, sabr-toqat, o’zaro kelishuv asosida jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etib barkamol yoshlarni tarbiyalash ishida hissa qo’shishi kerak.²

Hamid Ziyodov o’zining “Farzandlaringiz aqlli, sog’lom oqibatli bo’lsin desangiz ...” kitobida keksalikdagi fofija va baxtga erishish jarayoni inson faoliyatida amal qiladigan xatti xarakatiga bog’liq ekanligini uchta odamning konkret faoliyati bilan bog’lab izohlab beradi, ularning hayoti turlicha tarzda kechadi. Ulardan biri 8 ta farzand tarbiyalab, uylantirib, bir xonadonda katta qozondan ovqatlantirib, ular bir biriga yaqin bo’lib o’ssin degan ma’noda tarbiyalagan, lekin ularning fe’l-atvori turlicha bo’lib, har biri o’zicha bilimdonman deb bir-birini mensimasligi, oqibatda janjal chiqib, ular o’rtasida mehr-oqibat ko’tarilgani haqida fikr yuritilgan. Ota keksayganda qarovsiz qolgan, ularga o’z vaqtida oilaviy mustaqillik berilishini kech anglab etganini tushunadi.

Ikkinci ota ham yoshligida sharqli-hayoli bo’lganligini, keyinchalik yomon ulfatlarga qo’shilib, qimorbozlikka berilib ketganligi, natijada farzandlar ham ota izidan qimorbozlikka berilib ketganligi natijasida oila fojiali tarzda barbob bo’lganligini qiziqarli qilib yoritib bergen.

Uchinchi bir odam yoshligida jaholat va manmanlikka berilmay xushmuomalali va oqibatli bo’lishga harakat qilganligi, oilada tartib-intizom o’rnatib, farzandlar tarbiyasiga qattiq e’tibor berganligi oqibatida farzandlar bilimdan, mehr-oqibatli bo’lib tarbiyalishi negizida baxtli oila barpo bo’lishida ota-onasiga ibrat bo’lganligi oqibatida faravon yashashgan. Keksa ota qarilikning g’amini yoshlikdan imkoniyat doirasida,

² Nurali Shodihev. “Nuroniyalar ibrati bolalarimiz kelajagini belgilaydi”// –T.: Gazeta “Jamiyat”, 2015-yil 27 mart.

yan'ni daromadining to'rtdan birini to'plab borgan, oqibatda keksayganda to'plagan puli asqotib faravon, baxtli hayot kechirishganlar.³

Chunonchi, yoshlarga tarbiya berish jarayonida go'dakligidan ularning qalbiga keksa insonlarni hurmatlash, e'zozlash kabi xislatlari singdirilib borilsa, ko'zlangan maqsadga ota – ona erishishi mumkin. Farzandlar kelajakda ota – onadan ibrat olib oila sha'nini, obro'sini kutarsa, ota – ona farzandlaridan rozi bo'lib yashaydi.

Iqtidorli olim Muhammad Quronov ta'kidlashicha; "Barimiz keksalik, degan manzilga borayotgan yo'ldoshlarmiz. Bugun – men, ertaga – sen. Birov oldin, birov keyin. Ba'zi xalqlarda keksalikdan qo'rqish, cho'chish, qochish bor. Bizda, o'zbeklarda esa keksalikni odamning eng izzatli, orombaxsh davriga aylantiruvchi madaniyat, muhim bor. Bolangni tanish – notanish, millati, dinidan qa'tiy nazar, keksalarni izzat – hurmat qilishga o'rgat.

Keksalik aqli go'daklikka o'xshaydi. Go'dak – ko'p narsani bilmasa ham, hamma narsani bilishni, ko'rishni istaydi! Mo'ysafid hamma narsani biladi, lekin qila olmaydi. Hamma narsasi boru, hech narsa yoqmaydi.

Millatimiz tarixida keksalar har doim, hamma joyda tirik tarix, ajdodlarni ko'rgan, xikmatli ulug'lar deb e'zozlangan. Ularni hurmatlash masalasi muhokama qilinmagan. Unga amal qilingan. Qariyalarning ko'nglini ovlash uchun aka – ukalar bahslashib yurishgan"⁴- deb uqtiradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda keksalarni hurmat qilish, izzatini joy – joyiga qo'yish uchun doimo ular davlatimiz e'tiborida bo'lib kelmoqda, ularga xar tomonlama yuksak hurmat ko'rsatilib, moddiy va ma'naviy jihatdan quvvatlanmoqda. Masalan, urush ishtirokchilari va front orti faxriylariga nafaqalaridan tashqari ijtimoiy yordam ko'rsatilib, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, sanatoriya va kurortlarda davolanish, protez – ortapediya moslamalari, nogironlik aravachalari va boshqa zarur vositalar, jamoat transportida bepul yurishni ta'minlashda o'z ifodasini topmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2014 yil 13 oktyabrdagi "1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab – quvvatlashni yanada kuchaytirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2015 yil 18 fevraldag'i qarori bilan tasdiqlangan "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab – quvvatlash ko'lамини kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941-1945 yillardagi urush va mexnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek halqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning hurmatini mustahkamlashga qaratilmoqda.

³ Hamid Ziyoyev. "Farzandlaringiz aqli, sog'lom oqibatli bo'lsin desangiz ..." // –T.: "Sharq", 2011-yil, 122-125-betlar

⁴ Muhammad Quronov. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...// –T.: "Ma'naviyat", 2013-yil, 235-236- betlar.

“Keksalarni e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish xalqimizga xos ezgu fazilatlardan. Mamlakatimizda yoshi ulug‘ insonlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, salomatligini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zotan, nuroniyarlarni e’zozlagan kam bo‘lmaydi”⁵, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar o’rtasida ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishda tajribali, bilimli keksalardan oqilona foydalanib, har bir soha bo’yicha tadbirlarda ma’ruza bilan chiqish qilib, hayotiy tajribalaridan so’zlab bersa, yoshlar qalbiga singdirilsa, ularda ma’naviy – ma’rifiy immunitet mustahkam bo’lib, ular qalbiga hech qachon begona g’oyalar kira olmaydi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. A.Navoiy. Mahbub ul - qulub. –T.: “G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”. 1983yil, 48-bet.
2. Nurali Shodiyev. “Nuroniylar ibrati bolalarimiz kelajagini belgilaydi”// –T.: Gazeta “Jamiyat”, 2015-yil 27 mart.
3. Hamid Ziyoyev. “Farzandlaringiz aqli, sog’lom oqibatli bo’lsin desangiz ...” // – T.: “Sharq”, 2011-yil, 122-125-betlar
4. Muxammad Quronov. Bolam baxthi bo’lsin, desangiz...// –T.: “Ma’naviyat”, 2013-yil,235-236- betlar.
5. Sh.Mirziyoyevning 2017-yil, 8-iyulda Namangan viloyatiga tashrifidagi nutqlari.

⁵ Sh.Mirziyoyevning 2017-yil, 8-iyulda Namangan viloyatiga tashrifidagi nutqlari.